

## I SHO'BA TURKIY TILLAR TADQIQI VA TA'LIMI

### XI-XII ASRLAR TURKIY TILLI YODGORLIKARINING FUNKSIONAL GRAMMATIKASI PROFESSOR HAMID NE'MATOV TALQINIDA

*Mirzayev Ibodulla Kamolovich,*  
Samarqand davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori  
[ibodullamirzayev@samdu.uz](mailto:ibodullamirzayev@samdu.uz)

**Annotatsiya.** Professor Hamid Ne'matov o'zining shu nomda 1989-yilda chop etilgan monografiyaning kirish qismida grammatic shakllar haqida gapirib, qator tillarda, jumladan, turkiy tillarda ham nuqul tashqi (formal-tavsify) tomondan o'rganilayotgani, natijada ularni tashkil qilgan ichki qonuniyatlar tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolib kelayotgani, natijada tadqiqot ilmi va amaliyotining metodologik asoslari buzilayotgani, vaziyatdan chiqishning yagona yechimi til hodisalarini o'rganishda dialektik mantiq metodlaridan izchil foydalanish lozimligini urg'ulaydi, shu metodlardan til tahlilida qanday foydalanish tamoyillarini ko'rsatib beradi.

**Kalit so'zlar.** Turkiy yodgorliklar, qo'lyozmalar, mikrotizim, makrotizim, turkiy grammatika.

### XI-XII YÜZYILLAR TÜRK DİLİ ANITLARININ FONKSIYONEL GRAMERİ PROFESÖR HAMID NE'MATOV'UN YORUMU İLE

*Mirzayev Ibodulla Kamolovich,*  
Semerkand devlet üniversitesi profesörü, filoloji bilimleri doktoru

**Özet.** Profesör Hamid Ne'matov, 1989 yılında aynı adla yayımlanan monografisinin giriş kısmında, gramer şekillerinden söz ederek birçok dilde, özellikle Türk dillerinde, sadece dış (biçimsel-betimleyici) açıdan incelendiğini belirtmektedir. Bunun sonucu olarak, bu şekilleri oluşturan içsel yasalılıklar araştırmacıların dikkatinden kaçmakta ve bu da bilimsel ve uygulamalı araştırmaların metodolojik temellerinin bozulmasına yol açmaktadır. Bu durumdan çıkışın tek yolu, dil olgularının incelenmesinde dialektik mantık yöntemlerinin sistemli biçimde uygulanması gerektiğini vurgulamakta ve bu yöntemlerin dil çözümlemesinde nasıl kullanılacağına dair ilkeleri göstermektedir.

**Anahtar kelimeler.** Türk anıtları, el yazmaları, mikrosistem, makrosistem, Türk grameri.

### ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ ГРАММАТИКА ТЮРКСКИХ ПАМЯТНИКОВ XI–XII ВЕКОВ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ПРОФЕССОРА ХАМИДА НЕМАТОВА

*Мирзаев Ибодулла Камолович,  
профессор Самаркандского государственного университета,  
доктор филологических наук*

**Аннотация.** Профессор Хамид Нематов в введении своей монографии, изданной в 1989 году, отмечает, что грамматические формы в ряде языков, в том числе в тюркских, изучаются преимущественно с внешней (формально-описательной) стороны, в результате чего внутренние закономерности их организации остаются вне поля зрения исследователей. Это приводит к нарушению методологических основ научной и практической деятельности. Единственным выходом из ситуации является последовательное применение диалектической логики в изучении языковых явлений, что он и демонстрирует в своем методологическом подходе.

**Ключевые слова.** Тюркские памятники, рукописи, микроцизм, макроцизм, тюркская грамматика.

## FUNCTIONAL GRAMMAR OF TURKIC MONUMENTS OF THE XI-XII CENTURIES IN THE INTERPRETATION OF PROFESSOR HAMID NE'MATOV

**Mirzaev Ibodulla Kamolovich,**  
Professor at Samarkand State University, Doctor of Philological Sciences

**Abstract.** In the introduction to his 1989 monograph, Professor Hamid Ne'matov discusses grammatical forms, noting that in several languages, including Turkic, they are studied predominantly from an external (formal-descriptive) perspective. As a result, the internal regularities organizing them remain overlooked by researchers, leading to a disruption of the methodological foundations of scientific and practical work. The only solution to this issue is the consistent application of dialectical logic methods in studying linguistic phenomena, which he demonstrates in his methodological approach.

**Keywords.** Turkic monuments, manuscripts, microcosm, macrocosm, Turkic grammar.

H.Ne'matov qadimgi turkiy yodgorliklar tadqiqida dialektik mantiq g'oyalar bilan to'yintirilgan tizimli (sistem) usullardan foydalanish lozimligi haqida gapirar ekan, ularda istifoda etilgan til birliklari (fonema, morfema, leksema va sh.k.)ning nafaqat o'zaro aloqa tizimini, balki ularni obyektiv, tadqiqotchining irodasiga bog'liq bo'limgan holda mavjud bo'lish qonuniyatlarini ham o'rganish samarali natijalar berishi mumkinligini asoslashga harakat qiladi.

H.Ne'matov turkiy qo'lyozmalarni o'rganishning quyidagi tamoyillarini ishlab chiqadi va butun tadqiqot davomida shu tamoyillardan izchil va unumli foylalanadi:

1) til tizimi pog'onali joylashgan mikro (tag) tizimlarning o'zaro munosabati ta'siri sifatida o'rganiladi;

2) tizim (mikrotizim) va uning elementi (tarkibiy qism) umumiylilik va yakkalik, butun va qismlar dialektik munosabatlari bilan bog'liq holda tahlil qilindi;

3) tizim elementi (til birligi) substansiya, ya'ni borliqnning real birligi sifatida qaraladi va uning realligi (haqiqatdan ham mavjudligi, uning boshqa birliklar bilan munosabatida yo'q bo'lib ketmaydi; til birligi o'zining barcha sifat, xususiyat va munosabatlarining ifodasidir. Shuning uchun har bir elementning ta'rifi (mohiyati) uning konkret (matnda) qo'llanishiga qaraganda, boyroq va to'liqroq bo'lishi kerak;

4) til mikrotizimi har bir elementning boshqa elementlar bilan munosabatlari rangbarang, serqirra va dialektik o'zaro zidliklarda ochib beriladi;

5) grammatik shakl (kategoriya)ning mohiyati ziddiyatli ikkitaraflamalikka borib taqaladi;

6) grammatik shakl mohiyati mazkur shakl (kategoriya)ning oppozitsiyalar (mikrotizimlar), kam deganda, ikki qatorida kuzatiladigan munosabatlarda aniqlanishi mumkin;

7) tilning har bir mikrotizimi faqat unga xos va uning ichki taraqqiyot manbayidagi ziddiyat sifatida o'rganiladi;

8) o'zaro qarama-qarshi qo'yilgan ikki birlikning qo'llanishi, shakli yoki kategoriyalari orasida shu qarama-qarshilikda kiritilgan, uchinchi bo'lib keladigan va zid tomonlarning yaxlitligini ta'minlab turuvchi umumiyl bog'lovchi halqa (zanjur) bo'ladi;

9) til mikrotizimi elementi tashqi (formal, shakliy) va ichki (funksional, vazifaviy) tomonlarning dialektik birligi sifatida namoyon bo'ladi;

10) til tizimi (mikrotizim) hamisha ochiq, uzliksiz va ichdan (mohiyatan) o'zaro bog'liqlik, o'zgarish va taraqqiyot omilini talab qiladi [1, 192].

Professor, H.Ne'matovning biz munosabat bildirayotgan monografiyasida ism va fe'llarda so'z o'zgarishi va affiksal so'z yasalishi Qoraxoniylar davrining eng noyob yozma yodgorliklari "Devonu lug'otit-turk", "Qutadg'u bilig" va "Hibatul-haqoyiq" materiallari asosida tahlil qilingan.

Mazkur monografiya besh bobdan tashkil topgan. "So'z turkumlari tasnifi" deb nomlangan *birinchi* bobda 1) ismlar; 2) olmoshlar; 3) ravishlar; 4) fe'llar; 5) tovushga taqlid so'zlar; 6) tovushga taqlid so'zlar; 7) yordamchi so'zlar; 8) bog'lovchilar; 9) yuklamalar va so'z turkumlarining o'zaro nisbati; *ikkinchi* bobda ism so'z turkumlari tizimida so'z o'zgarishi (son kategoriyasi, XI-XII asrlar yodgorliklari tilida kelishiklar, egalik kategoriyasi); *uchinchi* bobda XI-XII asrlar yodgorliklarida fe'l nisbatlari, fe'lning predikativ va nopredikativ shakllari; *to'rtinchi* bobda yodgorliklar tilining grammatic kategoriyalari, grammatic kategoriyalar tasnifi; *beshinchi* bobda yodgorliklar tilida affiksal so'z yasalishi bilan bog'liq masalalar o'rganilgan.

Qariyb olti sahifani tashkil etgan "xulosa" til mikrotizimlarini qanday qilib dialektik mantiq qonun-qoida va talablari asosida o'rganish tamoyili sifatida taqdim etilgan. Bizningcha, uni, eng avvalo, o'zbek tiliga, keyin ingliz, fransuz, nemis, xitoy, eron, turk tillariga tarjima qilish kerak. Professor S.N.Ivanovning (Sankt-Peterburg) sistem-funksional tahlilning asos va tamoyillari bayon qilingan "Курс турецкого языка" o'quv qo'llanmasi o'zbek va ingliz tillariga tarjima qilindi (Qo'lyozma)

Albatta, bir ilmiy anjuman maqolasi doirasida professor H.Ne'matovning bu muhtasham monografiyasining har biri oltinga teng biror fasli mazmunini ham to'liq bayon qilishning imkoniy yo'q. Shunga qaramasdan, biz quyida ming yillardan buyon tadqiqotchilar e'tiboridan qolmagan, yillar o'tgani sayin son-sanoqsiz bahs-munozaralarga sabab bo'layotgan so'z turkumlari haqidagi bobni juda qisqacha tezis shaklida bayon qilishga harakat qilamiz.

Mazkur bobning asosi o'tgan asrning 60-yillarida, muallif Sankt-Peterburg davlat universiteti sharqshunoslik fakulteti 2-kursida tahsil olayotgan paytda "Turkiy filologiya" kafedrasida (akademik. A.N.Kononov rahbarligida) muhokama qilingan va olqishlarga sabab bo'lgan (Muhokama qatnashchilari tilidan).

Monografiya muallifi asosli yozganidek, so'z turkumlarida leksika va grammatica, til va nutq, til va borliqning o'zaro munosabatining eng murakkab masalalari jamlangan. Garchi so'zlar semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlar asosida tasniflansa-da, hamma tillar, jumladan, turkiy tillarda ham semantik belgi ko'proq ko'zga tashlanib turadi.

Hozirgacha biror tilda ham so'z turkumlari soni aniq belgilangan emas. Chunki ular turlicha, ko'pincha, bir-biriga to'g'ri kelmaydigan belgi-xossalari asosida tasniflansadi. Shuning uchun professor H.Ne'matov mantiqiy ziddiyatlarning oldini olish, umuman, tasniflar ishlab chiqishda formal mantiqning asosiy talablariga rioya qilish lozimligini ta'kidlab, taniqli faylasuf-mantiqshunos K.Glausning quyidagi so'zlarini keltiradi: "Tasnif faqat bir belgi asosida ishlab chiqilishi shart" [1, 12 b.].

Madomiki, semantik, morfologik va sintaktik belgilar mushtarok hodisalar emas ekan, benuqson, mantiqan ziddiyatsiz tasnif ishlab chiqish imkonsiz. Til hodisalari tasnifida ham bir belgi mezondan foydalanish lozimligini F.F.Fortunatov, A.M. Peshkovskiy, A.Gardner, A.I.Smirniskiy, O.P.Sunik kabi mashhur tilshunoslar o'z tadqiqotlarida takror va takror urg'ulaganlar [2, 40 b.].

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. – Ташкент: Фан, 1989.-192 стр.
2. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. 2-е 439.-М., 1920- С. 40-44.
3. Фортунатов Ф.А. Сравнительное языкознание// Избранные труды. Т.1. –М., 1953.-С.68.
4. Суник О.П. Общая теория частей речи.-М. –Л.,1968.
5. Gardner A.The Distinction of "Speech" and "Languge" Anti der III Congresso international dei lingnisti. – Firenze, 1933.-Р. 346.
6. Смирницкий А.И. Объективность существования языка. – М: МГУ,1954.-с.18.